

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSC.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**RADJABOV SARDOR BAXTIYOROVICH**

**FOND BOZORIDA KORXONALAR AKSIYALARI NARXI**  
**BARQARORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI**  
**(sement ishlab chiqaruvchi aksiyadorlik jamiyatlari misolida)**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2023**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) in  
economic sciences**

**Radjabov Sardor Baxtiyorovich**

Fond bozorida korxonalar aksiyalari narxi barqarorligini ta'minlash yo'llari  
(sement ishlab chiqaruvchi aksiyadorlik jamiyatlari misolida)..... 3

**Раджабов Сардор Бахтиёрович**

Пути обеспечения стабильности курса акций предприятий на  
фондовом рынке (на примере акционерных обществ по производству  
цемента)..... 27

**Radjabov Sardor Bakhtiyorovich**

Ways to ensure the stability of the stock price of enterprises in the stock  
market (In example of Cement producing joint-stock companies)..... 53

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 58

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSC.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**RADJABOV SARDOR BAXTIYOROVICH**

**FOND BOZORIDA KORXONALAR AKSIYALARI NARXI**  
**BARQARORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI**  
**(sement ishlab chiqaruvchi aksiyadorlik jamiyatlari misolida)**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Iqt3172 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Mirzayev Farhod Isamovich</b> iqtisodiyot fanlari doktori, professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Burxonov Aktam Usmonovich</b> iqtisodiyot fanlari doktori, professor
	<b>Abduraxmonov Ilyos Xurshidovich</b> iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Toshkent moliya instituti</b>

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil «\_\_\_»\_\_\_\_\_soat \_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy, Tel.: (71) 239-28-72, Faks: (71) 239-43-51; e-mail: [tdu@tdu.uz](mailto:tdu@tdu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy, Tel.: (71) 239-28-72, Faks: (71) 239-43-51; e-mail: [tdu@tdu.uz](mailto:tdu@tdu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «\_\_\_»\_\_\_\_\_kuni tarqatildi.  
(2023-yil «\_\_\_»\_\_\_\_\_dagi \_\_\_ - raqamli reestr bayonnomasi.)

**M.P. Eshov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash raisi, i.f.d., professor

**U.V. G‘afurov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash kotibi, i.f.d., professor

**S.K. Xudoyqulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash qoshidagi Ilmiy seminar  
raisi, i.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda aholining o‘sishi va urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi turar-joy va tijorat binolarini qurishga ehtiyoj oshishiga olib kelmoqda. Bu, bir qator mamlakatlarda infratuzilmani yangilash, qayta tiklash va mega-infratuzilma loyihalarini rivojlantirishning sezilarli darajada oshishi bilan bir qatorda, butun dunyo bo‘ylab sementga talabni kuchaytirmoqda. Bundan tashqari, sement ishlab chiqarish jarayoniga ilg‘or texnologiyalarning joriy etilishi bozor hajmi oshishini kuchaytirmoqda. Jumladan, “Jahon sement bozorining hajmi 2021-yilda 344,5 mlrd. AQSh dollari va 2022-yilda 363,2 mlrd. AQSh dollariga yetdi. Kelajakka nazar tashlaydigan bo‘lsak, IMARC Group tahliliga ko‘ra bozor qiymati 2027-yilga kelib 488,4 mlrd. AQSh dollariga, 2028-yilga kelib 518,5 mlrd. AQSh dollariga yetishi kutilmoqda, bu 2023-2028-yillarda o‘rtacha 6,22 foizga o‘shishini anglatadi”<sup>1</sup>. Zararli chiqindilarni kamaytirish va atrof-muhit salomatligini mustahkamlash uchun ekologik sof materiallarga asoslangan va barqaror binolarni qurishda “yashil sement”dan foydalanishning tobora ortib borayotgani bozorning ijobiy ahamiyatini oshirmoqda.

Jahonda global raqobatning kuchayib borishi sharoitida iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari, jumladan sement ishlab chiqarish korxonalari iqtisodiy barqarorligini ta‘minlashda fond bozori dastaklaridan foydalanish muammolariga yo‘naltirilgan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Sement ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan korxonalarda iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashga erishish yo‘llarini aniqlash, raqamli marketing ishlarini tashkil etish va marketing strategiyasini ishlab chiqish, zamonaviy sanoat korxonasining barqarorligini boshqarish, aksiyalar narxi barqarorligini ta‘minlash, fond birjasida korxonalar aksiyalari narxining o‘zgarish dinamikasiga ta‘sir qiluvchi omillarni ochib berish, yangi texnologiyalarni qo‘llash orqali havoni ifloslantirish darajasini kamaytirish metodologiyasini takomillashtirish masalalari bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi.

O‘zbekistonda bugungi kunda iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari, jumladan sement ishlab chiqarish sanoati korxonalarini modernizatsiyalash, ularda faoliyat yurituvchi ishchi va mutaxassislarning malakasini oshirish masalalariga muhim e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, sement sanoati korxonalarida axborot texnologiyalari infratuzilmasi va operatsion texnologiyalarni rivojlantirish, korxonalar resurslarini rejalashtirishning yangi tizimlari, jarayonlarini optimallashtirish, texnik xizmat ko‘rsatish samaradorligi oshirish, investitsiya jalb etishda fond bozoridagi aksiyalar qiymati, ishtiroki va aksiyalar narxi barqarorligini ta‘minlash, ishlab chiqarishni yangi texnologiyalar bilan ta‘minlash asosida xarajatlarni kamaytirish, ularni baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qator vazifalar belgilangan. Sement ishlab chiqarish korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi ichki talabni qondirish imkoniga ega bo‘lmay, sohaga investorlarni jalb etish muhim masala hisoblanadi. Shunga ko‘ra, sement sanoati

---

<sup>1</sup> <https://www.imarcgroup.com/top-10-cement-companies-worldwide>

mahsulotlarining eksport imkoniyatini oshirish uchun jarayonlarga raqamlashtirishni keng qo'llash muammolari ko'p jihatdan ilmiy yondashuvlarni taqozo etmoqda.

Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2018-yil 3-iyuldagi PQ-3832-son "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 21-noyabrdagi PQ-4022-son "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-iyuldagi 450-son "Sement importi tartibini soddalashtirish hamda ichki bozorni sifatli sement bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Korxonalar iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning metodologik asoslari va amaliyoti hamda korxonalar faoliyatida raqamli texnologiyalarni qo'llash masalalari bir qator xorijlik iqtisodchi olimlar R.A.Chemchukalenko, O.V.Majboroda, A.S.Lyn'ova, T.Grubich, I.Jennions<sup>2</sup>, I.L.Avdeyeva, V.G.Varnavskiy, Ye.V. Popov, K.A.Semyachkov, N.A.Stefanova, A.P.Sedova, V.Z.Chernyak, A.V.Kozachenko, V.M.Anshina, A.A.Dagayeva, V.S.Magomadov, B.M.Garifullin, V.V .Zyabrikov<sup>3</sup>ning ilmiy tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

---

<sup>2</sup> Chemchukalenko, R.A. Majboroda, O.V. and Lynyova, A.S. (2019), "Features of evaluation and analysis of financial stability of the enterprise", *Infrastruktura rynku*, vol. 32, pp. 379-385.; Grubich, T.; Jennions, I. Remote Monitoring Technology and Served Strategies - Factors Characterizing Organizational Applications. *Int. J Prod. Res.* 2018, 56, 2133–2149

<sup>3</sup> Авдеева И.Л. Анализ перспектив развития цифровой экономики в России и за рубежом // *Цифровая экономика и «Индустрия 4.0»: проблемы и перспективы.* – СПб.: Санкт-Петербургский политехнический университет Петра Великого, 2017. – С. 19-25.; Варнавский В.Г. Цифровые технологии и рост мировой экономики. // *Друckerовский вестник*, 2015. № 3. – С. 73-80.; Попов Е.В., Семячков К.А. Особенности управления развитием цифровой экономики. // *Менеджмент в России и за рубежом*, 2017. № 2. – С. 54–61.; Стефанова Н.А., Седова А.П. Модель цифровой экономики // *Карельский научный журнал*, 2017. Т. 6. № 1. С. 91-93.; Черняк В.З. Управление предпринимательскими рисками в системе экономической безопасности. Теоретический аспект. // *ЮНИТИ-ДАНА, Закон и право*, 2015. – С. 78.; Козаченко А.В. Экономическая безопасность предприятия: сущность и механизм обеспечения: [монография] / А.В. Козаченко, В.П. Пономарьев, О.М. Ляшенко. – К.: Либра, 2013. – 280 с.; *Инновационный менеджмент: Концепции, многоуровневые стратегии и механизмы инновационного развития: Учеб. пособие / Под ред. В.М. Аньшина, А.А. Дагаева.* – 3-е изд., перераб., доп. – М.: Дело, 2007. – 584 с. 270 - 271с.; Магомадов В. С. Технология «цифровой близнец» для производства / В. С. Магомадов, 10.23670/IRJ.2020.97.7.010 // *Международный научно-исследовательский журнал.* – 2020. – № 7 (97) Часть 1. – С. 72-75.; Гарифуллин Б.М., Зябриков В.В. Цифровая трансформация бизнеса: модели и алгоритмы. // *Креативная экономика. Том 12, № 9, Изд. Креативная экономика*, 2018. – С. 1346-1358.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan E.A.Akramov, A.Burxanov, M.Q.Pardayev, B.I.Isroilov, S.S.Gulyamov, R.X Ergashev, S.N.Xamrayeva, M.A.Maxkamova, G.J.Allayeva, B.T.Baykhonov, M.M.Bustonov tadqiqotlarini asos qilib olish mumkin<sup>4</sup>, lekin hozirgacha ular asosida korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda raqamli iqtisodiyotning ta'sir darajasi aniqlashga qaratilgan xalqaro amaliyotini qo'llash masalasi va metodologik asoslari alohida mustaqil dissertatsion tadqiqot sifatida amalga oshirilmaganligi va tizimli ravishda muammoni chuqurroq o'rganish zarurati dissertatsiya mavzusi sifatida tanlanishiga asos bo'ldi.

**Tadqiqotning maqsadi** sement ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalarining fond bozoridagi aksiyalari narxi barqarorligini ta'minlashga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

sanoat korxonalari iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga ta'sir qiluvchi iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish;

sement ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan korxonalarda raqamli marketing ishlarini olib borish va marketing strategiyasini ishlab chiqish asosida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga erishish yo'llarini tadqiq qilish;

korxonalar faoliyatining barcha sohalarini raqamli o'zgartirish sharoitida zamonaviy sanoat korxonasining barqarorligini boshqarish xususiyatlarini tadqiq qilish;

kompaniyalarining aksiyalari narxi barqarorligini ta'minlashning xalqaro tajribasini o'rganish;

fond birjasida korxonalar aksiyalari narxining o'zgarish dinamikasi va ularga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish;

ishlab chiqarish tizimining barqaror va beqaror xatti-harakatlarining turli xil variantlari uchun ekzogen va endogen omillar bo'yicha tahlil qilish;

sement ishlab chiqaruvchi korxonalarining fond bozoridagi aksiyalari narxiga ta'sir qiluvchi omillarning ekonometrik modelini ishlab chiqish;

katta ma'lumotlar texnologiyalaridan foydalanuvchi va ikkita boshqaruv siklini o'z ichiga olgan ko'p siklli barqarorlikni boshqarish konsepsiyasini ishlab chiqish;

korxonalarining fond bozoridagi aksiyalari narxi barqarorligini ta'minlash yo'llari bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

---

<sup>4</sup> Акрамов Э.А. Корхоналарнинг молиявий ҳолати таҳлили. – Т.: Молия, 2003. 64-85-б.; Бурханов А.У. Инвестиция фондларининг молиявий хавфсизлигини таъминлаш. //Илм-фан ва инновацион ривожланиш. – Т., 2019. - №4. 6-13-;. Пардаев М.Қ., Исроилов Б.И. Молиявий таҳлил: (Услугий кўрғазмалар ва тавсиялар альбом). – Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1999. –197 б.; Гулямов С.С., Эргашев Р.Х., Хамраева С.Н. Рақамли иқтисодиёт. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2020 й. - 368 б.; Махкамova М.А. Рақамлаштириш нафақат одамлар турмуш тарзини, балки тафаккурини ҳам, ўзгартиради. //Халқ сўзи, 4 ноябрь 2020 йил, №232 (7734). 6. Махкамova М.А. Система глобальных изменений. // Народное слово, 13 ноября 2020 года. № 239 (7710). 7. Махкамova М.А., Аллаева Г.Ж. Теория инновационного менеджмента. Монография. //Наука и технология. – Т., 2019. – С.160.; Determination of the level of risks in investment projects using econometric model. International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology [ijert] issn: 2394-3696 website: ijert.org volume 7, issue 8, aug.-2020. 8. Baykhonov B. T, Bustonov M.M., Econometric models of sectoral distribution of investments in the economy of Uzbekistan // South Asian Academic Research Journals Vol. 9, Issue 8, August 2019.

**Tadqiqotning obyekti** O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan sement ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan aksiyadorlik jamiyatlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** korxonalarining fond bozorida aksiyalari narxi barqarorligini ta’minlashda yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda statistik tahlil, empirik baholash, iqtisodiy-matematik, omilli tahlil, ekspert baholash, tizimli tenglamalar modeli, korrelyatsion-regression tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

korxonalar aksiyadorlariga oddiy aksiyalarni bozor qiymatining 95 foizidan past bo‘lmagan narxda sotib olishdan iborat o‘z imtiyozli huquqlarini ro‘yobga chiqarishni keng qo‘llash orqali korxonaning ustav kapitalini oshirish taklif etilgan;

korxonaning bitta aksiyasiga to‘g‘ri keluvchi bazaviy daromadini baholash qo‘shimcha tarzda aksiyalarning “ikkilamchi bozordagi narxining o‘zgarishi” ko‘rsatkichidan foydalanish orqali takomillashtirilgan;

korxonaning aksiyalariga ayirboshlanadigan qimmatli qog‘ozlarni xodimlar uchun “aksiya opsiya”laridan foydalanish taklifi asoslangan;

“Qizilqumsement” aksiyadorlik jamiyati aksiyalarining ikkilamchi bozor narxi o‘zgarishining narx bo‘yicha grafiklardagi vizual to‘lqinlar tizimidan foydalangan holda ikkinchi tartibli chiziqli differensial tenglamalarni qo‘llash orqali kunlik o‘zgarish prognozi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

kompaniyalar aksiyalari narxiga ta’sir qiluvchi omillarning ta’sir darajasini baholashda iqtisodiy va moliyaviy vaqt qatorlarini tahlil qilish uchun foydalaniladigan dinamik omil modelidan (DFM) foydalanish tavsiya etilgan;

sement ishlab chiqaruvchi korxonalar fond birjasi orqali investorlarni jalb etish uchun aksiyalarni baholash uchun zarur barcha ko‘rsatkichlar (EPS, ROE, EBITDA, EBIT, EV/tonna, dividend stavkasi) e’lon qilish shaffofligini ta’minlash zarurligi asoslangan;

“Qizilqumsement” aksiyadorlik jamiyati aksiyalarining ikkilamchi bozorda narxi o‘zgarishini Elliot to‘lqini qoidalaridan foydalangan holda Lager funksiyalarini qo‘llash orqali kunlik o‘zgarish prognozi ishlab chiqilgan;

kelgusi davrda aksiyadorlik jamiyati aksiyalar narxini oshirish uchun birinchi navbatda inflyatsiya darajasi hamda korxonaga kiritilayotgan investitsiyaga alohida e’tibor qaratish zarurligi ekonometrik tahlil asosida asoslab berilgan.

**Olingan natijalarning ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ularni taniqli iqtisodchi olimlarning sanoat korxonalarini aksiyalari narxining o‘zgarish tamoyillari borasidagi ilmiy-nazariy qarashlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish va umumlashtirish, korxonalarining makroiqtisodiy statistik ko‘rsatkichlari, muallifning tadqiqoti natijalari, rasmiy statistik ma’lumotlar hamda boshqa rasman e’lon qilingan amaliy ma’lumotlar tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ishlab chiqilgan nazariy-uslubiy xulosa va takliflardan sement ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar aksiyalari narxining fond bozorida barqarorligini baholash imkoniyatini beruvchi metodologik

yondashuvlarni ishlab chiqish, korxonalar aksiyalari narxi barqarorligini baholash, ularning kelajakdagi strategiyalarini ishlab chiqish hamda dasturlarini shakllantirish, sement ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan korxonalar aksiyalari barqarorligini ta'minlashning konseptual asoslarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan amaliy tavsifdagi xulosa va takliflardan korxonalarining fond bozorida aksiyalar narxi barqarorligini ta'minlash, jalb etish dasturlarini shakllantirish va prognozlash, korxonalarining fond birjasida aksiyalar narxi barqarorligini ta'minlash asosida investorlarni jalb etish orqali ularning jahon bozoriga kirib borish imkoniyatlarini oshirishda maqsadli dasturlarni qabul qilishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Sement ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar aksiyalari narxlari barqarorligini ta'minlash bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy takliflar asosida:

korxonaning aksiyalariga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlar odatdagi aksiyalarning egalari bo'lmish aksiyadorlarga joylashtirilganda, aksiyadorlarga oddiy aksiyalarni bozor qiymatining 95 foizidan past bo'lmagan narxda sotib olishdan iborat o'z imtiyozli huquqlarini ro'yobga chiqarishni keng qo'llash orqali ustav kapitalini oshirish bo'yicha taklif "Qizilqumsement" aksiyadorlik jamiyati amaliyotiga joriy etilgan ("Qizilqumsement" aksiyadorlik jamiyatining 2023-yil 16-maydagi 6/756-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi asosida korxonaning ustav kapitali 2021-yilga nisbatan 2022-yilda 5,3 foizga oshgan;

korxonaning bitta aksiyasiga to'g'ri keluvchi bazaviy daromadini tahlil qilishda aksiyalarning "ikkilamchi bozordagi narxini o'zgarishi" bilan baholash bo'yicha taklif "Qizilqumsement" aksiyadorlik jamiyati amaliyotiga joriy etilgan ("Qizilqumsement" aksiyadorlik jamiyatining 2023-yil 16-maydagi 6/756-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi natijasida fond bozorida aksiyalar erkin muomalada bo'lishi ta'minlash orqali 2021-yilda dividend stavkasi 16,75 ga, 2022-yilda esa tashkilot ishlab chiqarish quvvatini oshirishi natijasida dividend stavkasi 26,86 ga ko'tarilishiga erishilgan;

korxonaning aksiyalariga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlarning xodimlar uchun "aksiya opsiya"laridan foydalanish bo'yicha taklif "Qizilqumsement" aksiyadorlik jamiyati amaliyotiga joriy etilgan ("Qizilqumsement" aksiyadorlik jamiyatining 2023 yil 16-maydagi 6/756-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi aksiyaga to'g'ri keluvchi daromadning kamayishi yoki har bir aksiya uchun zararining oshishi 2021-yilga nisbatan 2022-yilga 1,2 foizga kamayib, oddiy aksiyalar uchun daromadlar hajmi (EPS) 2022-yilda 1024 so'mni tashkil etgan;

"Qizilqumsement" aksiyadorlik jamiyati aksiyalarining ikkilamchi bozor narxi o'zgarishining narx bo'yicha grafiklardagi vizual to'liqlar tizimidan foydalangan holda chiziqli differensial tenglamalarni qo'llash orqali kunlik o'zgarish prognozi "Qizilqumsement" aksiyadorlik jamiyati amaliyotiga joriy etilgan ("Qizilqumsement" aksiyadorlik jamiyatining 2023-yil 16-maydagi 6/756-

sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi Elliot to'liqidan foydalangan holda Lager funksiyalari asosida aksiyadorlik jamiyati uchun kamida 10 kunlik aksiyalar narxini o'zgarishining prognozini aniqlash imkonini yaratgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 4 ta ilmiy ish nashr etilgan. Ularning 2 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda, jumladan, 2 tasi xorijda, 2 tasi mahalliy jurnallarda e'lon qilingan, xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlari to'plamida 4 ta ma'ruza tezisi chop etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, 8 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, uning hajmi 146 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Korxonalarining aksiyalar narxini barqarorligini ta'minlashning nazariy va uslubiy asoslari**" deb nomlanib, bunda raqamlashtirish orqali korxonalarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning nazariy-uslubiy asoslari, moliyaviy barqarorlik tushunchasining nazariy asoslari va unga ta'sir qiluvchi omillar hamda kompaniyalar aksiyalari narxi barqarorligini ta'minlashning xalqaro tajribasi tahlil qilingan.

Jahon bankining "Raqamli dividendlar" nomli tadqiqoti natijalari mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirishda raqamli iqtisodiyotning naqadar dolzarb va muhimligini ko'rsatdi. Xususan, "internet tezligining 10 foizga o'sishi, mamlakat YAIMning o'sishiga olib keladi. Rivojlangan davlatlarda bu ko'rsatkich 1,21 foizni, rivojlanayotgan davlatlarda 1,38 foizni tashkil etgan. Demak, internet tezligi ikki barobarga oshadigan bo'lsa, YAIM hajmining qariyb 15 foizga oshishiga erishish mumkin".

Demak, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan korxonalar va tashkilotlar tomonidan raqamlashtirish jarayonini tezroq qo'llash orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlash masalasi bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Respublikamiz iqtisodiyotiga raqamlashtirish jarayonlari boshlang'ich nuqtada ekanligi e'tiborga olinsa, raqamlashtirish orqali korxonalar iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning nazariy-uslubiy asoslarini birinchi navbatda ko'rib chiqish muhim hisoblanadi.

Korxonaning moliyaviy barqarorligini baholash uchun mahalliy va jahon

amaliyotida qo'llaniluvchi ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan. Ulardan asosiylari:

korxonaning o'z kapitali konsentratsiya koeffitsiyenti (avtonom koeffitsiyenti);

korxonaning moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti;

korxonaning o'z kapitalining harakatchanlik koeffitsiyenti;

korxonaning aylanma mablag'larining o'z aylanma mablag'lariga nisbati.


Bugungi kunda "iqtisodiyotda "moliyaviy barqarorlik" tushunchasini ta'riflash bo'yicha umumiy xususiyatlarga yoki sezilarli farqlarga ega ko'plab yondashuvlar mavjud". Ushbu atama barcha darajalarda – yakka tartibdagi uy xo'jaliklari yoki yakka tartibdagi tadbirkorlardan tortib global moliyaviy tizimlar faoliyatigacha qo'llaniladi. Ba'zi olimlar moliyaviy barqarorlikni uzoq muddatli to'lov qobiliyati sifatida tavsiflaydilar. Boshqalar esa, bu aylanma aktivlarning optimal tuzilishi va tarkibidir. Uchinchi guruh olimlarining fikricha, bu korxonaning uzoq muddatli istiqboldagi barqaror faoliyati, bu o'z mablag'lari va qarzlarning nisbati va undan samarali foydalanish bilan belgilanadi. Yondashuvlarning bunday xilma-xilligi korxonaning moliyaviy barqarorligi, albatta, konsepsiyaning ko'p qirrali ekanligidan dalolat beradi.

Raqamlashtirish orqali korxonalarining moliyaviy barqarorligi ta'minlashda o'rganilgan nazariy-uslubiy asoslar asosida quyidagilarga erishish imkoniyati yuzaga keladi:

birinchidan, korxonalarda yangi raqamli texnologiyalarning kiritilishi ishlab chiqarish hajmi oshishiga olib keladi; ikkinchidan, bozorga taklif etilayotgan mahsulotning sifat jihatdan ustuvorligi oshadi; uchinchidan, korxonaning mahsulotiga talab ortishi asosida uning mijozlar soni ortib boradi; to'rtinchidan, qimmatli qog'ozlar bozorida korxonaning aksiyalar narxini oshishi va uning barqarorligini ta'minlashga erishiladi; beshinchidan, korxonaning tashqi bozorda imkoniyatlari oshib, mahsulotni eksport hajmi ortadi; oltinchidan, korxonaga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning kirib kelish hajmi ortadi; yettinchidan, raqamli texnologiyalar zamonaviy vositalaridan foydalangan holda xorijlik hamkorlar bilan ishlash imkoniyatini beradi.

Korxonaning tizimining yaxlitligiga erishish va uni saqlab qolish uchun korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha kompleks strategiyani qo'llash kerak, bu mumkin bo'lgan iqtisodiy o'zgarishlarga moslashadi va korxonaning uzluksizligini ta'minlaydi. Uning asosiy mezonlari resurs cheklovlarini aniq tushunish, mas'ul shaxslarning mavjudligi, matnning aniqligi va foydalanish imkoniyati, bozor muhitidagi o'zgarishlarga javob berish moslashuvchanligi, maqsadlarning tizimlilik va yaqinlashishi hisoblanadi. Nazariy jihatdan, korxonaning moliyaviy barqarorligiga erishishning doimiy tamoyillari mavjud emas.

Ayrim olimlarning fikricha, "moliyaviy barqarorlikni korxonaning va tashkilotlarning o'z mablag'lari va barcha mablag'larning nisbati sifatida ifodalab, moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini 5 ta guruhga ajratish zarur".



**1-rasm. Korxon va tashkilotlarning moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarini guruhlariga ajratish<sup>5</sup>**

Mualliflar tomonidan taklif etilgan guruhlar asosida korxon va tashkilotlardagi moliyaviy barqarorlikni hisoblash ma‘lum ma‘noda aniq xulosalarni shakllantirish imkonini beradi. Berilgan guruhlardagi barcha ko‘rsatkichlar ichki va tashqi omillarni to‘liq qamrab olgan. Ammo shu bilan birga ushbu ko‘rsatkichlar ham to‘liq korxon va tashkilotlarni moliyaviy barqarorligini baholash uchun yetarli bo‘lmasligi mumkin. Korxon va tashkilotlarning moliyaviy barqarorligini ularning fond birjasidagi aksiyalari narxining o‘zgarish holatlaridan bilish mumkin.

Quyida keltirib o‘tilgan tadqiqotlardan kelib chiqib, fond birjasida ro‘yxatga olingan kompaniyalarning aksiya daromadlari darajasi makroiqtisodiy omil beta qiymati bo‘yicha farqlar, ya‘ni yalpi ichki mahsulot, inflyatsiya, foiz stavkasi va ayirboshlash kursi bilan ularning narx barqarorligiga ta‘sir qiluvchi omillar tahlili bo‘yicha ham tadqiqotlar o‘tkazilgan. Bu yerda makroiqtisodiy omillardan biriga yuqori sezgirlik darajasiga ega aksiyalar, lekin boshqa tomondan, boshqa makroiqtisodiy omillarga nisbatan past sezgirlikka ega birja daromadi mavjudligi bilan alohida ahamiyatga ega. Bu ulardagi makroiqtisodiy omillarning birja daromadlaridagi ijobiy va salbiy qiymatlari o‘zgarishi bilan izohlanadi. YAIM birja daromadlari bilan ijobiy, inflyatsiya birja daromadlari bilan salbiy bog‘liqlikka ega ekanligi, foiz stavkalari qimmatli qog‘ozlar daromadi bilan ijobiy munosabatda bo‘lishi asoslab berilgan. Investorlar, agar mamlakatda barqaror makroiqtisodiy sharoit bo‘lsa, unga sarmoya kiritishi asoslangan. Keyingi tadqiqotlar uchun makroiqtisodiy omillar, masalan, pul taklifi, neft narxi va siyosiy, xavfsizlik, ijtimoiy-madaniy omillar makroiqtisodiy bo‘lmagan omillarni ko‘rib chiqish muhimligi taklif etilgan.

Xulosa sifatida YAIM fond daromadlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi, inflyatsiya qimmatli qog‘ozlar daromadiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi, foiz stavkalari qimmatli

<sup>5</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

qog‘ozlar daromadiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi hamda valyuta kursi fond daromadlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi keltirib o‘tiladi.

## 1-jadval

### Aksiyalarning narxi barqarorligiga ta’sir qiluvchi omillar bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar<sup>6</sup>

Aksiyalar narxi barqarorligiga ta’sir qiluvchi eng muhim omillar	Tadqiqot olib borgan olimlar	Xulosa
Yalpi ichki mahsulot, inflyatsiya, foiz stavkasi, aholi daromadi	Tursoy (2008), Jecheche (2008), Kisman (2015)	Aksiyalarning narxi barqarorligiga ta’sir darajasi eng yuqori omil sifatida YAİM deb asoslab berganlar
Inflyatsiya, foiz stavkasi, jahon kapital bozorlarining daromadlilikligi, jahon inflyatsiyasi, foiz stavkalari va jahon valyuta kursi	Chen, Roll & Ross (1986), Chen & Jin (2004), Paavola (2006), Benakovic & Posedel (2010), Iqbal va boshqalar (2012), Herwany va boshqalar (2014), Tandiontong va boshqalar (2015)	Aksiyalarning narxi barqarorligiga ta’sir darajasi eng yuqori omil sifatida inflyatsiya deb asoslab berganlar
Valyuta kursi, bozor kayfiyati, foiz stavkalari, neft narxi, oltin narxi va yalpi ichki mahsulot	Paavola (2006), Tursoy (2008), Iqbal va boshqalar, (2012), Herwany va boshqalar, (2014), Tandiontong va boshqalar, (2015)	Aksiyalarning narxi barqarorligiga ta’sir darajasi eng yuqori omil sifatida valyuta kursi deb asoslab berganlar
Foiz stavkasi, fond indeksi, inflyatsiya, yalpi ichki mahsulot, sanoat ishlab chiqarishi	Chen, Roll & Ross (1986), Tursoy (2008), Benakovic & Posedel (2010), Herwany va boshqalar, (2014), Tandiontong va boshqalar, (2015)	Aksiyalarning narxi barqarorligiga ta’sir darajasi eng yuqori omil sifatida foiz stavkasi deb asoslab berganlar
Sanoat ishlab chiqarishi indeksi, inflyatsiya, yalpi ichki mahsulot, valyuta kursi	Chen, Roll & Ross (1986), Chen & Jin (2004), Paavola (2006), Tursoy (2008), Benakovic & Posedel (2010),	Aksiyalarning narxi barqarorligiga ta’sir darajasi eng yuqori omil sifatida sanoat ishlab chiqarish indeksi deb asoslab berganlar

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Sement korxonalarining fond birjasida aksiyalar narxini barqarorligini ta’minlovchi ko‘rsatkichlar tahlili**” deb nomlanib, unda sement ishlab chiqaruvchi korxonalarining fond bozoridagi aksiyalar narxiga ta’sir qiluvchi omillar tahlili, Elliot to‘lqini orqali fond bozorida sement korxonalarini aksiya narxining o‘zgarish tahlili va sement korxonalarini aksiyalar narxini barqarorligini ta’minlashning ekonometrik tahlili amalga oshirilgan.

Sement sohasida olib borilgan muayyan tadqiqotlar hozirgi asosiy muammolar yangi texnologiyalarni joriy etish, ekologiyaga ta’sir darajasini

<sup>6</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

kamaytirish, sementga sarflanuvchi xarajatlarni kamaytirish hamda korxonaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash masalalariga qaratilgan.

Respublikamizda ham sementga talabning keskin oshib borishi, bu sohada faoliyat yuritayotgan korxonalarning ishlash quvvatini oshirishga olib kelmoqda. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, "2022-yilning yanvar-noyabr oylarida O'zbekiston 2,1 million tonna sangasement import qilgan, bu esa 87,4 million AQSh dollariga teng. Shu bilan birga, sement importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 420 ming tonnaga kamaygan. 2022-yilning 11 oyi davomida O'zbekiston sementni import qilgan asosiy davlatlar quyidagilar hisoblanadi" : Tojikiston – 903 ming tonna, Qirg'iziston – 623,5 ming tonna, Qozog'iston – 558,6 ming tonna, Eron – 17,6 ming tonna, Turkmaniston – 12,7 ming tonna, Xitoy – 1,4 ming tonna va Rossiya – 1,1 ming tonna.

Ayni paytda O'zbekistonda "umumiy yillik quvvati 9,0 million tonnadan ortiq bo'lgan 12 ta sement zavodi faoliyat yuritmoqda, jumladan, yiriklari – Navoiy shahridagi "Qizilqumsement" AJ, ishlab chiqarish quvvati – 3500 ming tonna, "Oxangaransement" AJ (Oxangaron, 1740 ming tonna) , "Bekobodsement" AJ (Bekobod shahri, 1250 ming tonna), "Quvasaysement" AJ (Quvasoy shahri, 1080 ming tonna), Jizzax sement zavodi (Jizzax shahri, 1000 ming tonna kulrang sement yoki 450 ming tonna oq sement), kichik sement zavodlari umumiy quvvati yiliga 640 ming tonna.

Hozirgi kunda Markaziy Osiyo davlatlarida ham mazkur soha bo'yicha raqobat keskin ortib bormoqda. "Respublikamizda eng ko'p sement "Qizilqumsement" AJ tomonidan tayyorlangan. Yil davomida korxonada 3 mln. 615 ming tonna mahsulot mijozlarga yetkazilgan. "Ohangaronsement" AJda ham bu borada yuqori ko'rsatkichlar qayd etilgan. Aksiyadorlik jamiyati tomonidan 1 mln. 612 ming tonna sement tayyorlangan. Toshkent viloyatida joylashgan yana bir yirik sement zavodi "Bekobodsement" AJ ham ishlab chiqarish hajmi bo'yicha yetakchi hisoblanadi. Korxonada 2020-yilda 1 mln. 149 ming tonna sement aholiga yetkazib berilgan. "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJga qarashli Sherobod sement va Jizzax sement zavodlari tomonidan jami 2 mln. 99 ming tonna sement ishlab chiqarilgan. "Quvasaysement" AJda esa yil davomida 860 ming tonna sement tayyorlangan. Shuningdek, "Qoraqalpoqsement" MCHJ QK (280 ming tonna), "Surxonsementinvest" MCHJ (168 ming tonna), "Farg'onatsement" MCHJ QK (133 ming tonna), "Turon Eko Sement Grupp" MCHJ (126 ming tonna), "Jomboy Yashil Chiroqlari" MCHJ (73 ming tonna), "Sho'rsuv Sement" MCHJ (52 ming tonna), "Marokand Kabel Invest" MCHJ (31 ming tonna) tomonidan sifatli sement mahsulotlari ishlab chiqarilgan"<sup>7</sup>.

Respublikamizda faoliyat yuritayotgan ushbu sohadagi korxonalar faoliyati tahlil qilinsa, eng ko'p mahsulot yetkazib beruvchi korxonalar sifatida Navoiy shahridagi "Qizilqumsement" AJ va "Bekobodsement" korxonalarining aksiyalar narxini fond bozorida faoliyati bilan bog'lagan holda tahlil qilish mumkin.

---

<sup>7</sup> <https://yuz.uz/news/2020-yilda-eng-kop-tsement-qizilqumtsement-ajda-ishlab-chiqarilgan>

**“Qizilqumsement” AJ ko‘rsatkichlari (2016-yilga nisbatan, 2022-yil  
7 oylik ma’lumotlari asosida tayyorlangan)<sup>8</sup>**

№	Kўpctakichlar (foizda)	Yillar					
		2017	2018	2019	2020	2021	2022
1.	Daromad solig‘idan oldingi foyda (zarar)	69,5	73,7	162,5	85,1	185,6	74,8
2.	Hisobot davrining sof foydasi (zarar).	37,0	28,3	169,5	155,8	340,6	129,6
3.	Boshqa operatsion daromadlar	108,0	101,5	159,2	249,0	304,5	314,2
4.	Operatsion faoliyatdan olingan foyda (zarar)	73,1	79,0	164,1	77,8	172,8	89,7
5.	Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar	52,4	466,6	139,4	177,3	376,1	284,8
6.	Dividendlar ko‘rinishidagi daromadlar	107,7	126,5	84,0	146,0	337,9	0,0
7.	Mahsulot (tovarlar, ishlar, xizmatlar) sotishdan olingan yalpi foyda (zarar)	155,9	176,6	216,7	281,6	339,4	329,2

Daromad tashkilotlarning rentabelligini ifodalaydi va tashkilot moliyaviy salomatligining eng muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatining 2016-yilga nisbatan foydasi tahlil qilinganda tashkilotning sof foydasi 2021-yilda eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lib, 240 foiz ko‘p bo‘lgan. Bu albatta korxonana aksiyadorlariga dividend to‘lash imkoniyatlari oshgan. Dividend ko‘rinishidagi daromadlar ham 2016-yilga nisbatan 2021-yilda 237,9 foizga oshgan. Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar ham turli ko‘rsatkichlarga ega bo‘lsa-da, 2022-yilda 2016-yilga nisbatan ijobiy natijaga ega bo‘lgan. Mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda 2016-yilga nisbatan 229,2 foizga oshgan. Shu bilan birga daromad solig‘idan oldingi foyda 2016-yilga nisbatan pasayib borgan.

Ko‘pgina korxonalar uchun rentabellikni oshirish muhim ahamiyatga ega, chunki daromad olish korxonalariga o‘z sohalarida o‘shishda va raqobatda davom etish imkonini beradi. Daromadlilikni oshirish, shuningdek, korxonalariga moliyaviy institutlar, investorlar va aksiyadorlar tomonidan moliyalashtirishga yordam beradi. Agar biznes hozirgi kunda foydali bo‘lmasa, rentabellikning oshishi oxir-oqibatda foyda keltirishi mumkin, bu esa pirovardida biznesni davom ettirish imkonini beradi. Tashkilotning rentabellik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish jarayonida quyidagi natijalarga erishganini ko‘rish mumkin.

Ma’lumki o‘z kapitalining rentabelligi (ROE) tashkilotning rentabelligi va uning foyda olishda qanchalik samarali ekanligi ko‘rsatkichi hisoblanadi. ROE qanchalik yuqori bo‘lsa, kompaniya boshqaruvi o‘z kapitalini moliyalashtirishdan daromad olish va o‘shishda shunchalik samarali bo‘ladi. “Qizilqumsement” aksiyadorlik jamiyati o‘z kapitalining rentabellik koeffitsiyenti 2016-yilga nisbatan o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan. 2022-yil yakunlanmagani hisobga olinsa, 2021-yilda bu koeffitsiyent 0,84 ga teng bo‘lganini ko‘rish mumkin. Koeffitsiyentning qiymati qancha yuqori bo‘lsa, biznesga investitsiyalarning rentabelligi shuncha

<sup>8</sup> Muallif tomonidan aksiyadorlik jamiyati ma’lumotlari asosida tayyorlangan (<http://openinfo.uz/ru/reports/17849/>).

yuqori bo‘ladi. Agar hisob-kitob natijasi nolga yaqin bo‘lsa, korxonalariga investisiya qilishning maqsadga muvofiqligi juda shubhali.

### 3-jadval

#### “Qizilqumsement” AJ ko‘rsatkichlari (2022-yil 7 oylik ma’lumotlari asosida tayyorlangan)<sup>9</sup>

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar						
		2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
1.	O‘z kapitalining rentabellik koeffitsiyenti	0,014	0,092	0,07	0,48	0,24	0,84	0,32
2.	Umumiy to‘lov qobiliyatini qoplash nisbati	3,27	5,50	7,62	11,94	14,7	4,42	4,95
3.	Mutlaq likvidlik koeffitsiyenti	0,81	0,45	1,21	0,26	0,86	0,212	0,01
4.	Jalb qilingan mablag‘lari va o‘z mablag‘lari nisbati	4,38	5,40	3,85	0,1	0,04	0,07	14,88
5.	Asosiy vositalarni yangilash koeffitsiyenti	0,13	0,45	0,25	0,22	0,09	0,072	0,07
6.	Emitentning o‘z va qarz mablag‘lari nisbati	0,046	0,79	1,059	1,02	2,28	1,44	0,83

Shuning uchun tahlil qilayotgan tashkilot investisiya qilish maqsadga muvofiqligini anglatadi. Mutlaq likvidlik koeffitsiyentini ko‘rsatkichlariga e‘tibor qaratsa, tashkilotning bo‘sh pul mablag‘lari va qisqa muddatli moliyaviy investisiyalar hisobiga qisqa muddatli majburiyatlarini bajarish qobiliyatini aks ettirishi hisobga olinsa, 2021-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 0,212 ga teng bo‘lgan. Uning mezonini bo‘yicha qaralsa, 1-2 oralig‘ida bo‘lishi belgilangan. Demak tashkilotning mutlaq likvidlik koeffitsiyenti keyingi yillarda ijobiy holatni ko‘rsatgan.

Emitentning o‘z va qarz mablag‘lari nisbati ham muhim ko‘rsatkichlardan bo‘lib, uning mezonlari bo‘yicha 1 dan katta koeffitsiyent (bu qarz mablag‘larining o‘z kapitalidan ustunligini ko‘rsatadi) bankrotlik xavfining belgisidir. Aksiyadorlik jamiyatining bu ko‘rsatkich bo‘yicha 2021-yildagi holati 2020-yilga nisbatan ijobiy holatni ko‘rsatgan, ammo mezon bo‘yicha moliyaviy holatning beqarorligi va to‘lovga layoqatsizlik belgilari mavjudligini ko‘rsatib bergan. Endi tashkilotning fond bozoridagi holati tahlil qilinsa, tashkilotning aksiyalar bo‘yicha ko‘rsatkichlari quyidagicha bo‘lgan. Tashkilot tomonidan muomalaga chiqarilgan aksiyalar soni 447 516 900 tani tashkil etib, uning nominal bahosi 1570 so‘m etib belgilangan.

Oddiy aksiyalar uchun daromadlar hajmi (EPS) – bu tashkilotning sof daromadi uning muomaladagi oddiy aksiyalari soniga bo‘linishi bilan hisoblanadi. EPS tashkilotda o‘z aksiyalarining har bir aksiyasidan qancha pul topishi baholanadi va korporativ qiymatni baholash uchun keng qo‘llaniladigan ko‘rsatkichdir. Yuqori EPS ko‘proq qiymatni bildiradi, chunki investorlar

<sup>9</sup> Muallif tomonidan aksiyadorlik jamiyati ma’lumotlari asosida tayyorlangan (<http://openinfo.uz/ru/reports/17849/>).

tashkilotning aksiyalari narxiga nisbatan yuqori daromadga ega deb hisoblashsa, tashkilotning aksiyalari uchun ko‘proq pul to‘laydilar.

#### 4-jadval

### “Qizilqumsement” AJ ko‘rsatkichlari (2022-yil 7 oylik ma’lumotlari asosida tayyorlangan)<sup>10</sup>

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar						
		2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
1.	Oddiy aksiyalar uchun daromadlar hajmi (har bir aksiya uchun so‘mda)	12	73	60	227	460	989	1024
2.	Oddiy aksiyalar uchun daromadlar hajmi (bitta aksiyaning nominal qiymatiga nisbatan foizda)	0,76	4,6	3,82	14,45	29,3	63	65
3.	Oddiy aksiyalar bo‘yicha daromadlarni to‘lash bo‘yicha mavjud qarz (hisobot davri natijalari bo‘yicha (mln.so‘mda))	4 167,2	611,6	215,3	202,0	986,5	421120,36	1 346,9
4.	Oddiy aksiyalar bo‘yicha daromadlarni to‘lash bo‘yicha mavjud qarz (o‘tgan davrlar natijalari bo‘yicha (mln.so‘mda))	304,8	960,9	611,6	276,9	1 075,3	1075,3	-
5.	Aksiyaning yillik o‘rtacha narxi (so‘m)	1565	1473	1227	1659	2069,9	5902	3811

Aksiyadorlik jamiyatining 2016-yilda ushbu ko‘rsatkichi 12 so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yilda 1024 so‘mni tashkil etib, nominal bahosiga nisbatan 65 foizni tashkil etgan. Bu tashkilot uchun ijobiy holatni anglatadi. Tashkilotning o‘rtacha yillik narxlari ham ijobiy holatni ko‘rsatgan. 2016-yilda o‘rtacha narxi 1565 so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yil boshida 5902 so‘mni, yil oxirida esa 3811 so‘mni tashkil etgan.



2-rasm. “Qizilqumsement” AJ aksiyalari narxining o‘zgarish grafigi<sup>11</sup>

<sup>10</sup>Muallif tomonidan aksiyadorlik jamiyati ma’lumotlari asosida tayyorlangan (<http://openinfo.uz/ru/reports/17849/>).

Kiprning United Cement Group kompaniyasi “Qizilqumsement”dagi davlat ulushini 1,89 trln so‘mga (qariyb 175 mln. dollarga) sotib olib, O‘zbekistondagi sement zavodlari sonini 3 taga yetkazdi. Fusion Wealth Management menejeri Maykl MakGofi hukumat aktivni bozor qiymatidan 20 foizga arzonroqqa sotib, “xususiylashtirish dasturini shubha ostiga qo‘ygani”ni ta’kidladi. U kelishuvni shaffof emas deb atadi va ko‘proq taklif qilishga tayyor ishtirokchilar borligini ma’lum qildi. Uning fikricha, joriy bozor narxidan 20 % chegirma bilan – 2021- yil oxiridagi har bir aksiya uchun taklif qilingan 6500 so‘m o‘rniga 4859 so‘m belgilangani, yil oxirida yopilish bahosi (birjadagi savdo sessiyasi yopilishidagi oxirgi bitim) 6500 so‘mni tashkil etganligi, “Qizilqumsement” aksiyalari har tonnasi uchun 65 dollarga baholangani (EV/tonna uslubi bo‘yicha – kompaniya qiymatining har tonna quvvatiga nisbati), bu yangi zavodlardagi bir tonna quvvat uchun 150-200 dollarning yarmidan ham kamroq. Investor, shuningdek, kelishuvning shaffof emasligini va boshqa kompaniyalar yuqori narxni taklif qilishga tayyor bo‘lishi mumkinligini ham ta’kidlagan.

Demak, bugungi kunda investorlar uchun tashkilotlarning fond birjasidagi aksiyalar qiymatini to‘g‘ri baholanmasligi uning sohadagi raqobat muhitiga salbiy ta’sir qilishi ta’kidlanmoqdal. Shuning uchun tashkilotlarning aksiyalari narxi o‘zgarishini doimiy nazorat qilish asosida unga to‘g‘ri baho berish bu investorlar ishonchini oshishiga hamda ularni bozorga investitsiya kiritish imkoniyatini oshirishga xizmat qilishini belgilab beradi.

Respublikamizda faoliyat yuritayotgan ikkinchi yirik “Bekobodsement” AJning ko‘rsatkichlarini tahlil qilish kerak.

## 5-jadval

### “Bekobodsement” AJ ko‘rsatkichlari (2022-yil 7 oylik ma’lumotlari asosida tayyorlangan)<sup>12</sup>

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar						
		2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
1.	O‘z kapitalining rentabellik koeffitsiyenti	14,01	32,95	9,101	9,101	30,26	146,29	145,23
2.	Umumiy to‘lov qobiliyatini qoplash nisbati	2,158	10,73	1,532	2,154	21,01	7,210	7,215
3.	Mutlaq likvidlik koeffitsiyenti	0,074	12,60	0,061	0,126	18,16	0,288	0,299
4.	Jalb qilingan mablag‘larining o‘z mablag‘lariga nisbati	0,722	0,52	0,52	0,52	0,49	0,17	0,17
5.	Asosiy vositalarni yangilash koeffitsiyenti	0,068	10,35	0,0163	0,048	0,03	0,04	0,05
6.	Emitentning o‘z va qarz mablag‘lari nisbati	1,390	4,63	2,971	4,55	7,45	4,14	4,14


<sup>11</sup> [https://www.uzse.uz/isu\\_infos/STK?isu\\_cd=UZ7029000005&begin\\_date=01.01.2020&end\\_date=01.01.2023](https://www.uzse.uz/isu_infos/STK?isu_cd=UZ7029000005&begin_date=01.01.2020&end_date=01.01.2023)

<sup>12</sup> Muallif tomonidan aksiyadorlik jamiyati ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

“Bekobodsement” aksiyadorlik jamiyati o‘z kapitalining rentabellik koeffitsiyenti 2016-yilga nisbatan o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan. 2022-yil yakunlanmagani hisobga olinsa, 2021-yilda ushbu koeffitsiyent 146,29 ga teng bo‘lganini ko‘rish mumkin. Koeffitsiyentning qiymati keyingi ikki yilda juda yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lib, korxonaga investisiya qilish maqsadga muvofiqligini anglatadi. Mutlaq likvidlik koeffitsiyenti ko‘rsatkichlariga e‘tibor qaratilsa, korxonaning bo‘sh pul mablag‘lari va qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar hisobiga qisqa muddatli majburiyatlarini bajarish qobiliyatini aks ettirishi hisobga olinsa, 2021-yilga kelib bu ko‘rsatkich 0,288 ga teng bo‘lgan. Uning mezon bo‘yicha qaralsa, 1-2 oralig‘ida bo‘lishi belgilangan.

Demak, tashkilotning mutlaq likvidlik koeffitsiyenti keyingi yillarda ijobiy holatni ko‘rsatgan. Emitentning o‘z va qarz mablag‘lari nisbati ham muhim ko‘rsatkichlardan bo‘lib, 2021-yildagi holati 2020-yilga nisbatan ijobiy holatni ko‘rsatgan, ammo mezon bo‘yicha 1 dan katta koeffitsiyent (bu qarz mablag‘larining o‘z kapitalidan ustunligini ko‘rsatadi) bankrotlik xavfi belgisidir.

Endi tashkilotning fond bozoridagi holati tahlil qilinsa, tashkilotning aksiyalar bo‘yicha ko‘rsatkichlari quyidagicha bo‘lgan. Tashkilot tomonidan muomalaga chiqarilgan aksiyalar soni 6848280 tani tashkil etib, uning nominal bahosi 100 so‘m etib belgilangan.




**3-rasm. “Bekobodsement” AJ aksiyalar qiymatining o‘zgarish grafigi<sup>13</sup>**

Yuqorida tahlil qilingan ikkita korxonaning eng muhim ko‘rsatkichi foiz yoki rentabellik sifatida ifodalangan dividend stavkasini hisoblab topib, ikkita korxonaga faoliyatini taqqoslash mumkin. Korxonalar ushbu ko‘rsatkichlar orqali har yili uning aksiyalari narxiga nisbatan qancha dividend to‘lashini ko‘rsatadigan moliyaviy koeffitsiyenti hisoblanadi. Sog‘lom daromad keltiruvchi tashkilotlar ko‘pincha dividendlar to‘laydi. Dividendlarni to‘lash nisbati tashkilotlarning

<sup>13</sup> Muallif tomonidan aksiyadorlik jamiyati ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

dividendlari barqarorligini baholash usullaridan biridir.



**4-rasm. Tahlil qilinayotgan korxonalarining dividend stavkasi ko'rsatkichlari tahlili<sup>14</sup>**

